

Muzokaralarning ikkinchi bosqichi


Avval xabar berganimizdek, Joriy yilning iyul oyida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi raisi Abdurazak Mirzaev Xitoy Xalq Respublikasi xalqaro forumida ishtirok etib, ishbilarmon doirlari vakillari bilan bir qancha ikki va uch tomonlama muzokaralar o'tkazgan edi. Ushbu kunlarda Xitoyning "Foydali qazilmalarni qidirish bo'yicha "OYaSA" Sinzyanь kompaniyasi" direktori Renxu Vang o'zining o'rinbosari Djanlin Gao bilan birgalikda javob tashrifi bilan Navoiy shahrida keldilar.

21 avgust kuni Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limida "Navoiy" Erkin iqtisodiy zonasi direktsiyasi direktori Xabib Abdullaev, Navoiy viloyati hokimimning investitsiya va innovatsiyalar bo'yicha maslahatchisi Nazirjon Jo'raev, Navoiy bo'limi ilmiy kotibi Quvondiq Nurboev hamda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xitoylik tadbirkorlar ishtirokida davra suhbatini bo'lib o'tdi.



Xitoy Xalq Respublikasidan kelgan mehmonlarning ta'kidlashicha, xitoylik ishbilarmonlar bizning mamlakatimiz rahbariyati tomonidan biznes yuritish va biznes ishini ochishdagi korrupsiyani yo'qotish va bu sohadagi byurokратиyani kamaytirish borasida olib borilayotgan islohotlarni qo'llab-quvvatlaydi va bu o'z navbatida xorijiy investorlar uchun katta imkoniyatlar eshigini ochadi.

Xususan, uchrashuvdan mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "Oyasa-Qizilqum" O'zbek-Xitoy qo'shma korxonasini tashkil qilishning istiqbollari to'g'risida gapirildi. Mazkur korxonaning asosiy vazifalaridan biri hozirgacha ma'lum bo'lgan zahiralari tasdiqlanmagan va davlat reestriga kirmagan foydali qazilmalar joylashgan hudud to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, shu jumladan geologiya qidiruv ishlarni o'tkazish keyinchalik tegishli litsenziyani olish orqali qazish ishlarini tashkil qilish hamda yangi istiqbolli ma'dan ko'rinishlarini izlash maqsadida geologiya qidiruv ishlarini o'tkazish.



Ushbu qo'shma korxonada Xitoy Xalq Respublikasida bo'lib o'tgan anjumanda kelishilganidek ikki mamlakat olimlari va ishbiarmonlarini birlashtirishning istiqbolli mexanizmini hayotga o'tkazish maqsadida shakllantiriladigan Xitoydan keladigan investitsiya paketlarini muvofiqlashtiruvchi O'zbek-Xitoy informatsion-analitik markazning asosiy o'zagi hisoblanadi. Bu holatda o'zbek tomonidan Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi ilmiy, texnikaviy va iqtisodiy jihatdan asoslanmagan loyihalarni tanlab oladi va Xitoyliklarga taklif qiladi, Xitoy tomonidan esa "OYASA" kompaniyasi bu materiallar bo'yicha o'z tillarida patentsial investorlarga taqdimot qilib beradilar. Bu yerda yana bir boshqa sxema ham ish berishi mumkin ya'ni O'zbekistonda o'z ishini boshlamoqchi bo'lgan Xitoylik ishbiarmon uchun qaysi sohada bo'lishidan qat'iy nazar uning qiziqishi va mavjud kapitaliga mos keladigan loyihani tanlab berish, shu jumladan qishloq xo'jaligida va turli ishlab chiqarishi sohalarida.

Muzokaralar jarayonida ishtirokchilar yaqin oylarda qo'shma korxonada tashkil qilishi bo'yicha kelishuvga erishdilar. Faqat avval ikkala tomonning qiziqishlari va himoya qilish uchun yana manfaatlar kesishgan nuqtalarni izlab topish zarurligi to'g'risidagi fikrga kelindi, har ikkala tomon ham ijobiy va qat'iy pozitsiyaga hohish bildirishdi.

Bundan tashqari Xitoylik do'stlarning tashrifi dasturiga Navoiy erkin iqtisodiy zonasiga va dunyodagi eng katta oltin ma'danli "Muruntau" kareriga borish kiritilgan.

Fevzi Istablaev,

Navoiy bo'limi matbuot kotibi.